XIII. DEMOGRAFIYA

Doimiy aholi soni

Qashqadaryo viloyatining doimiy aholisi soni 2023- yil 1- aprel holatiga 3499,1 ming kishini tashkil etib, 2023- yil boshidan 16,8 ming kishiga ya'ni 0,5 % ga o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 1498,9 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 42,8 %), qishloq aholisi soni 2000,2 ming kishini (57,2 %) tashkil etdi.

E'tibor bering:
2023- yil yanvar-mart oylarida

-Aholi soni **16,8 ming kishiga** ko'paydi.

-Tirik tug'ilganlar soni **22,3 ming nafarni** tashkil etdi.

-Vafot etganlar soni **3,8 ming** nafarni tashkil etdi.

-Nikohlar soni **5,6 ming nafarni** tashkil etdi.

-Ajrimlar soni **0,9 ming nafarni** tashkil etdi

2023-yilning yanvar-mart oylarida

Yil boshida doimiy aholi soni
3 482 318 kishi
(2023- yil 1- yanvar holatiga)

22,3 *ming bola*
Tug'ilganlar soni

3,8 *ming kishi*
O'lganlar soni

2,2 *ming kishi*
Ko'chib kelganlar soni

3,9 *ming kishi*
Ko'chib ketganlar soni

Doimiy aholi soni
3 499 126 kishi
(2023- yilning 1- aprel holatiga)

Qashqadaryo viloyati bo‘yicha doimiy aholi soni[1)]
(2023- yilning 1- aprel holatiga, ming kishi)

	Jami aholi	*shu jumladan:*	
		shahar aholisi	*qishloq aholisi*
Qashqadaryo viloyati	**3499,1**	**1498,9**	**2000,2**
shaharlar:			
Qarshi sh.	291,0	291,0	-
Shahrisabz sh.	145,3	145,3	-
tumanlar:			
G‘uzor	218,3	51,3	167,0
Dehqonobod	157,0	29,7	127,3
Qamashi	288,2	68,4	219,8
Qarshi	266,9	96,9	170,0
Koson	306,3	161,1	145,2
Kitob	277,4	103,5	173,9
Mirishkor	127,3	47,9	79,4
Muborak	92,1	73,3	18,8
Nishon	163,6	98,7	64,9
Kasbi	209,2	80,8	128,4
Ko‘kdala	184,6	29,2	155,4
Chiroqchi	262,1	75,3	186,8
Shahrisabz	231,8	55,8	176,0
Yakkabog‘	278,0	90,7	187,3

[1)] *dastlabki ma'lumot*

Qashqadaryo viloyati bo‘yicha doimiy aholi soni
(1- aprel holatiga ming kishi)

	2022- y.	*2023- y.*	*O‘tgan yilga nisbatan o‘sish sur’ati % da*
Qashqadaryo viloyati	**3422,6**	**3499,1**	**102,2**
shaharlar:			
Qarshi sh.	284,3	291,0	102,4
Shahrisabz sh.	143,1	145,3	101,5
tumanlar:			
G’uzor	213,4	218,3	102,3
Dehqonobod	153,8	157,0	102,1
Qamashi	281,8	288,2	102,3
Qarshi	260,6	266,9	102,4
Koson	299,0	306,3	102,4
Kitob	272,1	277,4	101,9
Mirishkor	124,6	127,3	102,2
Muborak	90,7	92,1	101,5
Nishon	160,0	163,6	102,3
Kasbi	204,7	209,2	102,2
Ko‘kdala	X	184,6	X
Chiroqchi	434,3	262,1	60,3
Shahrisabz	228,1	231,8	101,6
Yakkabog‘	272,1	278,0	102,2

Yanvar-mart oylarida aholining tabiiy harakati

	kishi			har 1000 kishiga nisbatan promille	
	2022- y.	2023- y.[1]	o‘sish, kamayish	2022- y.	2023- y.[2]
Tug‘ilganlar	20875	22306	1431	24,8	25,9
O‘lganlar	4680	3841	-839	5,6	4,5
Tabiiy o‘sish	16195	18465	2270	19,2	21,4
Nikohlar	6213	5550	-663	7,4	6,4
Ajralishlar	1073	928	-145	1,3	1,1

Tug‘ilish darajasi. 2023- yilning yanvar-mart oylarida tug‘ilganlar soni 22 306 kishini tashkil qildi va 2023- yilning shu davriga (20 875 kishi) nisbatan 1 431 kishiga yoki 6,8 foizga ko‘paydi. Tug‘ilish koeffitsienti mos ravishda 25,9 promilleni tashkil qildi va 2022- yilning shu davriga (24,8 promille) nisbatan 1,1 promillega ko‘paydi.

Aholining tabiiy harakati koeffitsientlari

(yanvar-mart oylarida) (1000 aholi soniga nisbatan promille)



[1] *dastlabki ma'lumot*
[2] *dastlabki ma'lumot*

Tug‘ilish darajasining ko‘payishi viloyatning deyarli barcha hududlarida qayd etildi. Bu ko‘rsatkichning yuqori darajasi Qarshi shahrida 24,6 dan 35,3 promillega, Shahrisabz shahrida 21,3 dan 22,8 promillega va Nishon tumanida 24,0 dan 25,8 promillega ko‘payishi kuzatilgan.

Tug‘ilish. 2023-yilning yanvar-mart oylarida 22,3 mingta bola tug‘ilganligi qayd etilgan bo‘lib (bu yerda va keyinchalik tug‘ilganlarga faqat tirik tug‘ilganlar inobatga olingan) mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug‘ilish koeffitsienti 25,9 promilleni tashkil etdi hamda 2022- yilning mos davriga nisbatan 1,1 promillega ko‘payganligi (2022-yilning yanvar-mart oylarida 24,8 promille bo‘lgan) kuzatildi.

Ma'lumot uchun

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.

Tumanlar kesimida tug‘ilganlar soni va koeffitsienti
(2023- yilning yanvar-mart oylarida)



O‘lim darajasi. 2023- yilning yanvar-mart oylarida o‘lganlar soni 3841 kishini tashkil qildi va 2023- yilning shu davriga (4680 kishi) nisbatan 839 kishiga yoki 17,9 foizga kamaydi. Mos ravishda o‘lim koeffitsienti 4,5 promilleni tashkil qildi (2022 yilning yanvar- mart oylarida 5,6 promille).

2023- yilning yanvar-mart oylarida asosiy o‘lim sabablari bo‘yicha vafot etganlarning taqsimlanishi

(jami vafot etganlarga nisbatan foiz hisobida)



O‘lim koeffitsientlari



O‘lim ko‘rsatkichlarining yuqori darajasi Kosonda (3,8 dan 4,1 promillega), Mirishkorda (5,3 dan 5,5 promillega), Dehqonobodda (5,4 dan 6,9 promillega) ko‘payishi kuzatilgan.

Nikoh. 2023- yilning yanvar-mart oylarida FHDYO organlari tomonidan 5,6 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsienti 6,4 promilleni tashkil etdi.

Tumanlar kesimida tuzilgan nikohlar soni va koeffitsienti
(2023- yilning yanvar-mart oylari holatiga 1000 aholiga nisbatan promille)



Nikohdan ajralishlar. 2023- yilning yanvar-mart oylarida FHDYO organlari tomonidan 0,9 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo‘lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsienti 1,1 promilleni tashkil etdi.

Tumanlar kesimida nikohdan ajralishlar soni va koeffitsienti
2023- yilning yanvar-mart oylari holatiga)



Nikohlar va ajralishlar. 2023- yilning yanvar-mart oylari FHDYO organlarida 5550 ta nikohlar va 928 ta ajralishlar ro‘yxatga olingan. Ming aholiga nisbatan 6,4 ta nikoh (2022- yilning tegishli davrida 7,4 ta) va 1,1 ta ajralishlar (2022- yilning tegishli davrida 1,3 ta) to‘g‘ri kelgan.

Tuzilgan nikohlar va nikohdan ajralishlar soni

(yanvar-mart oylarida, birlik)

	Tuzilgan nikohlar		*Nikohdan ajralishlar*	
	2022- y.	*2023- y.*	*2022- y.*	*2023- y.*
Qashqadaryo viloyati	**6213**	**5550**	**1073**	**928**
shaharlar:				
Qarshi sh.	500	476	133	114
Shahrisabz sh.	212	220	82	66
tumanlar:				
G’uzor	333	314	40	40
Dehqonobod	189	181	6	30
Qamashi	582	469	84	66
Qarshi	456	398	107	77
Koson	540	449	60	52
Kitob	534	467	123	69
Mirishkor	216	212	26	23
Muborak	157	132	23	17
Nishon	312	246	48	50
Kasbi	306	327	42	53
Ko‘kdala	-	314	-	29
Chiroqchi	815	414	95	61
Shahrisabz	543	482	83	67
Yakkabog‘	518	449	121	118

Migratsiya[1] (Ichki va tashqi). Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra 2023- yilning yanvar-mart oylarida Viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 2239 kishini, shu davr mobaynida ko'chib ketganlar soni esa 3896 kishini tashkil qilgan.

Aholi migratsiyasi (kishi)

	2022- yilning yanvar-mart oylarida	2023- yilning yanvar-mart oylarida
Ko'chib kelganlar	2630	2239
Ko'chib ketganlar	4555	3896
Migratsiya saldosi	-1925	-1657

2023- yilning yanvar-mart oylarida migratsiya qoldig'i minus 1657 kishiga (2022- yilning shu davrida minus 1925 kishi) teng bo'ldi. Eng katta minus qoldiqlar Qamashi (minus 286), Yakkabog' (minus 227) va Shahrisabz (minus 202) tumanlarida kuzatilgan.

Yanvar-mart oylarida

Soni, *ming kishi*





[1] *shahar va tumanlar hamda hududlar aro ichki migratsiyani qo'shgan holda*
[2)] *dastlabki ma'lumot*

Viloyat markazidagi demografik holat

Qashqadaryo viloyati markazi Qarshi shahrining doimiy aholisi soni 2023- yil 1-aprel holatiga 291,0 ming kishini tashkil etib, yil boshidan 2,1 ming kishiga yoki 0,7 % ga o‘sgan.

Qarshi shahri aholisi tabiiy harakati

(1000 aholiga nisbatan promille)

2022- yilning yanvar-mart oylarida		2023- yilning yanvar-mart oylarida
	Tug‘ilish	
18,7		30,3

2023- yilning yanvar-mart oylarida 2,5 ming bola tug‘ilganligi qayd etilgan bo‘lib, mos ravishda tug‘ilish koeffitsienti 1000 aholiga nisbatan 35,3 promilleni tashkil etdi (2022- yilning mos davrida 24,6 promille bo‘lgan).

FHDYO organlarida 2023- yilning yanvar-mart oylarida 476 ta nikoh va 114 ta nikohdan ajralishlar qayd etilgan.

Shuningdek, 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsienti 6,7 promilleni tashkil qilib, 2022- yilning mos davriga nisbatan kamaygan. (2022- yilning mos davrida 7,1 promille bo‘lgan).

Nikohdan ajralish koeffitsienti 1000 aholiga nisbatan 1,6 promilleni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 0,3 promillega kamaydi. 2022- yilning mos davrida 1,9 promille bo‘lgan.

Qarshi shahrida tuzilgan nikoh va ajrim

(yanvar-mart holatiga 1000 aholiga nisbatan promille)